

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA IQTISODIY NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULLARI

Ergashaliyeva Mohimbonu Bahromjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni hal qilishning eng maqbul usullari bo'yicha bir qancha fikrlar tahlil qilingan. Mavjud usullarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilingan. Xorijiy tajriba o'rganilib, bir qancha tajribalar solishtirib berildi. Shu bilan birga, xalqaro xususiy huquqda iqtisodiy nizolarni mediatsiya, arbitraj yoki boshqa usullar yordamida hal etish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Mavzuni muhokama qilish jarayonida faqatgina yutuq va kamchiliklar to'g'risida fikr yuritilmasdan, davlatlarning kelajakdagi maqsadlari va rejalariga iqtisodiy nizolarning ta'siri qay darajada ekanligi ham tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: *mediatsiya, kelishuv, muqobil usullari, ekspert xulosasi, iqtisodiy nizo, xalqaro xususiy huquq.*

Аннотация: *В данной статье анализируется ряд мнений о наиболее целесообразных способах разрешения экономических споров в международном частном праве. Проанализированы плюсы и минусы существующих методов. Был изучен зарубежный опыт и сравнен ряд опытов. В то же время международное частное право предоставляет информацию о разрешении экономических споров с использованием медиации, арбитража или других методов.*

В ходе обсуждения темы обсуждались не только достижения и недостатки, но и анализировалось влияние экономических споров на будущие цели и планы государств.

Ключевые слова: *медиация, соглашение, альтернативные методы, экспертное заключение, экономический спор, международное частное право.*

Abstract: *This article analyzes a number of opinions on the most appropriate ways to resolve economic disputes in private international law. Pros and cons of existing methods are analyzed. Foreign experience was studied and a number of experiences were compared. At the same time, international private law provides information on resolving economic disputes using mediation, arbitration or other methods.*

During the discussion of the topic, not only the achievements and shortcomings were discussed, but also the impact of economic disputes on the future goals and plans of the states was analyzed.

Key words: *mediation, agreement, alternative methods, expert opinion, economic dispute, international private law.*

KIRISH

Bugungi rivojlangan dunyoda inson jamiyatning boshqa a'zolari ya'ni davlat va umuman xalq bilan o'zaro munosabatda bo'lishi kerak. Savdo-sotiqda va tadbirkorlikda erkinlik yaratib berilganligi, uning huquq bilan kafolatlanganligi hammamizga ma'lum. Shunday davrda savdo bilan bog'liq nizolar ko'plab paydo bo'lmoqda, bu esa imkon qadar tezroq muammolarni hal qilishni talab qilmoqda. 1991-yilda globallashuvning paydo bo'lishidan boshlab, xalqaro savdo va umuman xalqlar o'rtasidagi savdo kuchaydi. Globallashuv davlatlar ichidagi savdo va savdodagi to'siqlarni olib tashladi, ammo u dunyoni turli bo'laklarga bo'lib yubordi. Globallashuv axborot, g'oyalar, texnologiyalar, tovarlar, xizmatlar, kapital, moliya va odamlarning mamlakatlararo oqimlari orqali iqtisodiyot va jamiyatlarning integratsiyasini anglatadi. Bu bog'liqlik orqali zamonaviy nizolar xalqaro xarakterga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy va huquqiy munosabatlar rivojlanib borgan sari ushbu munosabat orqali kelib chiqayotgan nizolar ham yangicha ko'rinishlarda vujudga kelmoqda.

Shu kabi nizolarning biri iqtisodiy nizolar hisoblanadi. Ushbu nizo turiga yuridik adabiyotlarda bir qancha ta'riflar mavjud bo'lib, ularning obyekt, qo'llanish doirasi bir-biridan farq qiladi. Bu borada В.М.Степаши "Iqtisodiy nizolar – tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy sohalarda yuzaga keladigan nizolar bo'lib, huquq subyektlari, shu jumladan yuridik shaxslar ishtirokida yuzaga keladigan va ma'muriy, fuqarolik huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar bo'lib, arbitraj va xo'jalik sudlarida ko'rib chiqiladi " deb fikr bildirgan bo'lsa, Ю.В.Третьяков fikricha, "Iqtisodiy nizolar-bu iqtisodiy nizolarni amalga oshirish bilan bog'liq fuqarolik yoki boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki yuridik shaxslar faoliyati" ekanligini aytib o'tgan. Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy nizolar tadbirkorlar va yuridik shaxslar tomonidan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq fuqarolik yoki boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolardir. Qachonki, iqtisodiy nizolar chet el elementi bilan murakkablashgan holatda xalqaro huquq bilan tartibga solinishni talab etadi. Shunday ekan, aytishimiz mumkinki, iqtisodiy nizolar xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinishi uchun subyetklar yoki ulardan biri chet el fuqarosi bo'lishi yoki chet el yuridik shaxsi bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari nizo qaratilgan obyekt chet elda joylashgan bo'lishi kerak yoki nizoga sabab bo'lgan holat chet elda sodir bo'lgan bo'lishi ham iqtisodiy nizolarning xalqaro huquq normalari orqali tartibga solinishi kerakligini bildiradi. agar nizo subyektlari bir tomoni davlat bir tomon boshqa davlat yuridik shaxsi bo'lsa ham ushbu nizo xalqaro huquq normalari asosida tahlil etiladi.

Demak, xalqaro huquqda iqtisodiy nizolar tushunchasiga yetarlicha ta'rif berib o'tildi va tavsiflandi. Ushbu nizolarni hal qilish haqida nizolarni hal qilish atamasi orqali tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi. Nizolarni muqobil hal qilish - bu faqat tomonlar ishtirok etadigan (muzokaralar) maxfiylikdan tortib, ochiq sud majlisi xususiyatlariga ega bo'lgan, qaror qabul qilish uchun

majburiy bo'lgan qaror qabul qilishgacha bo'lgan barcha usullar, vositalar tizimi hisoblanadi. Asosiy mavzumiz xalqaro nizolarni hal qilishning muqobil usullari ekanligidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, xalqaro nizolarni hal qilish uchun sud va arbitrajdan tashqari nizolarni hal qilishning boshqa usullari ham qo'llanishi mumkin. Ko'p hollarda majburiy hisoblanmagan boshqa usullar arbitraj bilan birlashtirilishi mumkin. Misol uchun, tomonlar dastlab o'z nizolarini muzokaralar orqali hal qilishga urinib ko'rishga va u muvaffaqiyatsiz bo'lgan taqdirda, mediatsiyaga murojaat qilishga kelishishlari mumkin. Agar bu ham ish bermasa, so'ng ular majburiy arbitrajga kirishadilar. Nizolarni hal qilishning boshqa usullari maqolamiz mavzusida keltirilgandek, iqtisodiy nizolarni hal qilishning muqobil usullari deb ham ataladi. Lekin, nizolarni muqobil hal qilish atamasi barcha uchun bir xil narsani anglatmaydi.

Yevropaning aksariyat qismida va boshqa ayrim davlatlarda nizolarni muqobil hal qilish deganda sud va arbitrajni ham istisno qiladigan amaliyot tushuniladi.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Nizolarni hal qilish xalqaro huquqda bir qancha ta'rif va tahlillarga egadir. Hal qilish tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, tomonlar o'rtasida kelishuvga erishish uchun eng maqbul usulni topish orqali vujudga keladi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, nizolarni muqobil hal qilish mexanizmi sudgacha yoki sud jarayonida hal bo'ladigan turli xil nizolarni bartaraf etish jarayonidir. Ushbu tushuncha bo'yicha ko'plab olimlarning fikrlari mavjud hisoblanadi. Ingliz olimlarining "Fuqarolik sudlari" nomli kitoblarida nizolarni muqobil usulda hal qilish sud qaroridan tashqari hal qilish usuli sifatida ekanligi qisqacha aytib o'tilgan. AQSH olimlari "Nizolarni muqobil hal qilish barchaning manfaati uchun huquqiy nizolarni sud jarayonlaridan tashqari hal qilishga ruxsat berish, an'anaviy sud jarayoning narxini pasaytirish yoki sudga olib kelishi mumkin bo'lgan huquqiy nizolarning oldini olish" -deb yozadi.¹ Rossiya Federatsiyasi Oliy arbitraj sudi raisi V.F. Yakovlev o'z nutqida "Nizolarni hal etishning muqobil usullarini joriy etish, sudning o'zida yarashuv tartib-qoidalarini kengroq qo'llash, kichik va nisbatan sodda ishlarni ko'rish tartibini soddalashtirish zarurligini bevosita ta'kidlagan"². "Nizolarni muqobil hal qilish deganda nizolar

¹ This definition is distinctly different from that implied by one of the leading critics of ADR, Professor Owen M. Fiss

namely, that ADR is the creation of incentives or pressures that force litigants to settle. See Fiss, *Out of Eden*, 94 YALE

² Sm. V Vserossiyskiy syezd sudey 27-28-noyabrya 2000g. Doklad Predsedatelya Vysshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskoy Federatsii V.F. Yakovleva // Vestnik Vysshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskoy Federatsii. 2001. № 1. S. 14.

uchinchi shaxs ishtirokida yoki uning ishtirokisiz suddan tashqari yakdil bir to'xtam (qaror)ga keltiriladigan tartib-taomillar tushuniladi" .³

Ko'plab yuridik adabiyotlarda nizolarni muqobil hal qilish ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Birinchi tomondan taraflar sudning qarorisiz o'zlari kelishib olishlari kerakligi aytilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ixtiyoriy ravishda rasmiy sud jarayonidan tashqari holatda o'z muammolarini hal qilish maqsadida taraflar tomonidan tanlangan usul hisoblanadi. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari barcha turdagi ziddiyatli vaziyatlarda keng qo'llaniladi. Ularning ba'zilari mediatorlar ishtirokini jalb qilsa, boshqa qismi tomonlarni mustaqil yarashishga chaqiradi. Nizolarni hal etishning muqobil

usullari tushunchasi va turlari qonun bilan aniq belgilanmagan, lekin xuquqiy doktrinada ishlab chiqilgan. Ba'zi suddan tashqari kelishuv tartib-taomillari tomonlar uchun majburiy bo'lishi mumkin, boshqalari esa, aksincha, faqat

nizolashayotgan taraflarning ixtiyoriy iltimosiga binoan amalga oshiriladi. Muqobil hal qilish usullarining turlari ro'yxati hech qayerda o'rnatilmagan va hech narsa bilan chegaralanmagan. Istalgan vaqtda yangi usullar paydo bo'lishi mumkin. Eng asosiysi, ular o'zlariga yuklatilgan vazifani bajaradilar, ya'ni ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish.

Jahon amaliyotida nizolarni hal qilishning muqobil turlari juda ko'p, ular orasida quyidagi tartiblarni ajratib ko'rsatish kerak:

- ✓ ***ekspert ta'rifi (xulosa);***
- ✓ ***muzokaralar;***
- ✓ ***mediator ishtirokidagi muzokaralar;***
- ✓ ***yarashuv;***
- ✓ ***vositachilik;***
- ✓ ***arbitraj (hakamlik muhokamasi);***
- ✓ ***mustaqil qaror;***
- ✓ ***qisqa jarayon;***
- ✓ ***vaziyatlarning o'rnatilishi;***
- ✓ ***nizolarni ko'rib chiqish komissiyalari;***
- ✓ ***xususiy sud;***
- ✓ ***dastlabki mustaqil baholash;***
- ✓ ***nizolarni hal qilish bo'yicha sudgacha yig'ilish;***
- ✓ ***soddalashtirilgan hay'at sud;***
- ✓ ***mediatsiya;***⁴

³ Xaqberdiev Abdumurad Abdusaidovich "Mediatsiya nazariya va amaliyot" o'quv qo'llanma. Toshkent-2022

⁴ Xaqberdiev Abdumurad Abdusaidovich "Mediatsiya nazariya va amaliyot" o'quv qo'llanma. Toshkent-2022

Nizoni hal qilishda taraflar mavjud usullardan xabardorligi vaziyatga katta ta'sir o'tkazadi. Yuqorida keltirilgan ko'plab usullarni deyarli barcha nizolashayotgan taraflar bilmaganligi tufayli nizo yirik tus olib ketadi.

Xalqaro xususiy huquqda yuqorida keltirib o'tilganidek, nizolarni hal qilishning ko'plab muqobil usullari mavjud. Lekin ushbu maqolada eng ko'p qo'llaniladigan maqbul usullar haqida fikr yuritiladi. Demak, xalqaro huquqda nizoni hal qilishning eng muqobil usullari quyidagilar:

- ✓ **Muzokara**
- ✓ **Mediatsiya**
- ✓ **Kelishuv**
- ✓ **Ekspert xulosasi**
- ✓ **Arbitraj**

Bugungi kunda iqtisodiy nizolarni hal qilishda taraflar ko'proq arbitraj sudlari yoki mediatsiyani ma'qul ko'rishadi. Lekin ko'plab holatlarda taraflar muzokaralar o'tkazish yoki ekspert xulosasi asosida nizoga barham beradilar.

Muzokaralar - muzokaralar nizolarni hal qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Nizolarni hal qilishning ikkita eng mashhur shakli arbitraj va vositachilik bo'lsa-da, muzokaralar deyarli har doim nizoni hal qilish uchun birinchi bo'lib harakat qilinadi. Muzokaralar tomonlarga nizoni hal qilish uchun uchrashish imkonini beradi. Nizolarni hal etishning ushbu shaklining asosiy afzalligi shundaki, u tomonlarning o'zlari jarayonni va uni hal etishni nazorat qilish imkonini beradi. Muzokaralar boshqa turdagi muqobil usullarga qaraganda ancha rasmiy emas va juda ko'p moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Muzokaralarning boshqa muqobil usullardan bir qancha ustun jihatlari mavjud hisoblanadi. Masalan, ushbu jarayonda taraflar birgalikda harakat qiladilar va yechim topadilar. Bundan tashqari ushbu jarayonni tashkillashtirish taraflar tomonidan erkin amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda eng muhim tarafi shundaki, muzokaralarda nizo predmetining maxfiyligi saqlanadi va taraflarga ushbu nizo predmetiga nisbatan xavfni vujudga keltirmaydi.

Mediatsiya -bu muzokaralar jarayoni bo'lib, mediator tashkilotchi hisoblanadi

va muzokaralarni tomonlar har ikki tomonning manfaatlarini eng samarali va ko'niktiradigan tarzda boshqaradi, natijada tomonlar o'zaro nizoni hal qiladilar. Mediatsiya - bu taraflar uchun majburiy bo'lgan qaror qabul qilish yoki yuklash huquqiga ega bo'lmagan neytral uchinchi shaxs -mediatorning faol ishtirokidagi nizolashayotgan tomonlar o'rtasidagi muzokaralar hisoblanadi. Mediatsiya norasmiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun maxfiylik bilan bog'liq masalalar mediatorga bog'liq holda tashkil qilinadi. Mediatsiya trening darslarga o'xshaydi ammo u faqatgina tavsiya berish bilan cheklanib qolmaydi.

Mediatsiya bir qancha bosqichdan iborat bo'ladi. Ular:

- ✓ mediatsiya jarayoni bilan tanishtirish;
- ✓ taraflarning taqdimoti;
- ✓ muhoka va muzokaralar uchun masalarni ishlab chiqish;
- ✓ har bir tomon mediatorining individual ishi;
- ✓ mediatsiya loyihasini tayyorlash;
- ✓ mediatsiyadan chiqish.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, mediatsiyaning asosiy prinsiplari boshqa muqobil usullarning prinsiplaridan tubdan farq qilmaydi. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-iyundagi "Mediatsiya to'g'risida" gi qonunning 5-moddasiga asosan:

"Mediatsiyaning asosiy prinsiplari:

Mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi"⁵ deb belgilab qo'yilgan.

Xalqaro huquqda nizolarni hal qilishning yana bir muqobil usullaridan biri **kelishuv bitimi** tuzish hisoblanadi. Kelishuv bitimi tuzish orqali taraflar mavjud nizoni bartaraf etishlari mumkin. Kelishuv bitimi tuzish usulining boshqa usullardan afzal taraflari shundan iboratki, ushbu usul orqali taraflar o'zlari kelishgan holda o'zlari uchun maqbul bo'lgan, imkoniyatlariga to'g'ri kelgan yo'lni tanlaydilar. Ushbu kelishuv tuish orqali taraflar o'rtasidagi munosabatlar ham saqlanib qoladi. Taraflar kelishuvga erishganda kelishuv bitimi tuziladi. Bunda, avval, tomonlar nizoni hal etish tartibi va nizoga yechim berishadi. Kelishuvga erishish maqsadida takliflar birma-bir ko'rib

chiqiladi. Kelishuvga erishishning birinchi bosqichida tomonlar o'z takliflarini bersa, ikkinchi bosqichida ushbu takliflarni qabul qilish yoki qilmaslik ko'rib chiqiladi. Taklifni qabul qilish yozma bo'lishi kerak, bu taklifni qabul qilinganligini tasdiqlovchi hujjat bo'ladi.⁶

Nizolarni hal qilishda **ekspert xulosasiga** to'xtaladigan bo'lsak, ushbu xulosa muhim deb hisoblangan hollarda ICC xalqaro ekspertiza markaziga murojaat qiladilar va nizo bo'yicha ularga mutaxassis tayinlanadi. Bu usuldan taraflar nizoning kelib chiqishini bilish uchun foydalanishlari yoki uni hal etishda qo'llashlari mumkin.

Arbitraj sudlari - nizolarni hal qilishning eng ramziy va rivojlanayotgan shakllaridan biridir. Arbitraj mediatsiyadan ko'ra rasmiyroq bo'lib, an'anaviy sud jarayonlari bilan juda ko'p o'xshashliklarga ega hisoblanadi. Ular cheklangan kashfiyotlar va soddalashtirilgan dalillar qoidalarini o'z ichiga oladi (masalan, arbitrajda mish-mishlarga yo'l qo'yiladi).

Arbitrajning har xil turlari mavjud:

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida" gi qonuni: <https://lex.uz/docs/-3805227>

⁶ Paulette Khumalo. Compromise: settlement agreements.

<https://www.financialinstitutionslegalsnapshot.com/2023/03/compromise-settlement-agreements/>

Milliy arbitraj: masalan, Amerika arbitraji, Fransiya arbitraji yoki Germaniya arbitraji, ularning barchasi har bir mamlakat institutlari tomonidan qabul qilingan turli qoidalar bilan tartibga solinadi;

Xalqaro tijorat arbitraji: odatda ikki xil shtatdagi xaridorlar va sotuvchilar o'rtasidagi tijorat shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish uchun ishlatiladi;

Investor-davlat arbitraji: xususiy investorlar tomonidan investitsiya qiluvchi davlatga qarshi arbitraj sudiga bir tomonlama murojaat qilish.

Arbitraj tomonlarning roziligiga tayanadi, shuning uchun hakamlik kelishuvi timsoldir, chunki u arbitraj bo'lgan muayyan tizimga kirish eshigi hisoblanadi.

Agar taraflar arbitrajga kirishdan oldin ma'lum shartlar bo'yicha nizolar mavjud bo'lsa, ular nizoni hal qilish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin.

Hakamlik sudiga tomonlarning kelishuviga ko'ra hakamlik hay'ati yoki bitta arbitraj boshchilik qiladi va qaror qabul qiladi. Arbitrlar advokat bo'lishlari shart emas, tomonlar nizoni hal qilish uchun ko'proq mos deb hisoblagan boshqa sohalardan hakamlarni tanlashi mumkin, bu odatda arbitraj qurilish yoki farmatsevtika masalalari kabi juda ixtisoslashgan mavzu bilan shug'ullanganda yuzaga keladi. Tomonlar, masalan, qurilish nizolarini hakamlik qilish uchun muhandislik tajribasiga ega arbitrni tanlashlari mumkin.

Hay'atni tuzish uchun ikkala tomon ham bitta hakamga rozi bo'ladilar yoki har bir tomon bitta hakamni, ikkita hakam uchinchisini saylaydi. Hakamlik sudlari odatda bir necha kundan bir haftagacha davom etadi. Keyin hay'at yoki bitta hakam muhokama qiladi va yozma majburiy qaror yoki arbitraj qarorini chiqaradi. Arbitraj uzoq vaqtdan beri mehnat, qurilish va qimmatli qog'ozlarni tartibga solishda qo'llanilgan, ammo hozirda boshqa biznes nizolarida mashhur bo'lib kelmoqda.

1958-yilda xorijiy Arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi konvensiya yoki "Nyu-York konvensiyasi" xorijiy mamlakatlarda chiqarilgan qarorlarning mahalliy sudlarda ijro etilishiga yordam berish uchun ishlab chiqilgan. 1970-yilda Qo'shma Shtatlar qo'shildi va 2021-yil noyabr holatiga ko'ra konvensiyada 156 ta davlat ishtirok etadi.⁷

Arbitraj sudlari 2 xil bo'lishi mumkin. Bular, ad hoc arbitraji va institutsional arbitraj. Ad hoc arbitraji taraflar kelishuvi asosida nizoni hal etish uchun bir martalik tuziladigan arbitraj hisoblanadi. Institutsional arbitraj esa, doimiy faoliyat yuritadi. Arbitraj sudi tomonlar qo'llashga kelishgan huquqdan foydalanadi, agar tomonlarning kelishuvi bo'lmasa, nizo yuzaga

⁷[https://www.law.cornell.edu/wex/alternative_dispute_resolution#:~:text=Alternative%20Dispute%20Resolution%20\(%22ADR%22,conciliation%2C%20mediation%2C%20and%20arbitration.](https://www.law.cornell.edu/wex/alternative_dispute_resolution#:~:text=Alternative%20Dispute%20Resolution%20(%22ADR%22,conciliation%2C%20mediation%2C%20and%20arbitration.)

kelgan davlat huquqi, shuningdek, nizo doirasida foydalanilishi mumkin bo'lgan amaldagi xalqaro huquq normalari qo'llaniladi.⁸

Xalqaro xususiy huquqqa ko'ra nizolar hal etish usullari O'zbekistonda ham qo'llaniladi. Mamlakatimizda nizolarni hal qilishning muqobil usullarini joriy qilishga oid izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, milliy qonunchilikda nizolarni hal qilishning muqobil usullari tushunchasi

mustahkamlanmagan. O'zbekiston Respublikasida nizolarni hal qilishning muqobil usullari qo'llanishiga bir necha sabablar mavjud. Misol qilib aytadigan bo'lsak, nizoni sudda ko'rib chiqish tarafdorlari o'rtasida ziddiyatni kuchaytirib yuboradi. Bundan tashqari sudda nizoni ko'rib chiqish uchun davlat boji xarajatlari talab etiladi. Shu bilan birga, shuni ham ta'kidlash kerakki, sudda nizoni ko'rib chiqishga vaqt ko'p sarflanadi. Eng so'nggida esa birinchi instansiya sudida yutkazgan taraf albatta shikoyat beradi va ikkinchi instansiya sudiga murojaat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan: "Fuqarolik huquqlari protsessual qonunchilik yoki shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi (bundan keyin — sud) tomonidan himoya qilinadi"⁹. Bundan tashqari arbitraj sudlari faoliyatini tartibga solish uchun "Xalqaro arbitraj faoliyati to'g'risida" gi qonun mavjud hisoblanadi. Mediatsiya esa "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyulda qabul qilingan «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bilan investorlar huquqlarini munosib himoya qilish maqsadida Oliy sudda investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlarni ko'rish bo'yicha maxsus sudlov tarkibi tashkil etilgan hisoblanadi. Sudlov tarkibiga investitsiya kiritilgan sanada yigirma million AQSh dollari ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda investitsiyani amalga oshirgan jismoniy yoki yuridik shaxslar va davlat organlari o'rtasida yuzaga keladigan investitsiyaviy nizolar hamda raqobatga oid ishlarni ko'rish vakolati berildi. Shundan so'ng investorlarga o'z xohishi bilan nizoni hal qilish uchun Oliy sudga murojaat qilish huquqi berildi.¹⁰ Aytishimiz mumkinki, bu investitsiyaviy nizolarni hal qilishga qaratilgan muhim o'zgarishlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda iqtisodiy nizolarni hal

etishning bir usuli bu mediatsiya. Mediatsiya suddan tashqari nizoni sudda ko'rib chiqish jarayonida, sud qaror qabul qilish uchun alohida (maslahat) xonaga kirguniga qadar, shuningdek, arbitraj sudida nizoni ko'rib chiqish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

⁸ G.M.Velyaminov. Xalqaro iqtisodiy huquq va protsess (akademik kurs): darslik. - M.: Volters Kluver, 2004-yil. 333-

bet.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi; <https://www.lex.uz/docs/-111189>

¹⁰ <https://www.xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-investitsiyaga-oid-nizolar>

Mediatsiya jarayonida, sud jarayonida, nizoni vakolatli davlat organida ko'rib chiqish paytida taraflar tomonidan erishilgan mediatsiya bitimi darhol sudga yoki tegishli ish bo'yicha mas'ul bo'lgan vakolatli davlat organiga yuboriladi¹¹. ko'rib turganimizdek O'zbekistonda ham nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan ko'plari qo'llanib kelinadi. Arbitraj va mediatsiya usullari ko'proq foydalanishi ularning qulayligidan dalolat beradi. Ekspert xulosasi, kelishuv yoki muzokara usullaridan ham foydalanilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy nizolar chet el elementi bilan murakkablashgan bo'lsa, nizoni hal qilishda tomonlar xalqaro qonunchilik bilan teng ravishd xalqaro huquq normalarining qo'llanilishini ta'minlamoqdalar.

XULOSA

Xususiy xalqaro huquqida nizolar davlat, shaxslar o'rtasida kelib chiqishi mumkin. Nizoni hal etish esa taraflarning tanlovi asosida amalga oshiriladi. Xalqaro xususiy huquqda kelib chiqqan iqtisodiy nizolarni hal qilishning ko'plab maqbul usullari mavjud hisoblanadi. Ularning ko'plari bugungi kunda barcha davlatlar tomonidan qo'llanib kelinmoqda. Agar taraflar shartnoma tuzish jarayonida nizo kelib chiqqan taqdirda masala bir davlat qonunchiligi bilan hal etilishi belgilab qo'yilgan bo'lsa o'sha davlatning huquqi bo'yicha ish ko'rib chiqiladi. Boshqa hollarda shartnomada belgilanmagan bo'lsa taraflar keyinchalik kelishib olishlari mumkin. Nizolarni hal etishning muqobil usullaridan kelishuvda taraflar kelishgan holda yechim topadilar. Mediatsiyada esa mediator yordamidan foydalangan holda nizo bartaraf etiladi. Ekspert xulosasida taraflar kelib chiqqan muammoni qayerdan, nima sababdan vujudga kelganini aniqlash uchun ekspertning xulosalaridan foydalanadilar. Berilgan ulosaga ko'ra nizoni hal qilish usularini ham ko'rib chiqadilar. Shuni aytish lozimki, investitsion nizolarni ko'rib chiqishda arbitraj sudlarining rolini oshirish lozim, chunki investorlar mahalliy sudlardan ko'ra arbitraj sudlariga ko'proq ishonch bildirishadi. Chunki arbitraj sudlarida taraflar qaysi davlat qonunchiligidan foydalanishni o'zlari tanlaydilar. Nizolarni hal qilishda Amerika usulini qo'llash ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu usul *Med-arb* deb nomlanadi. Ushbu usulning o'ziga xosliklaridan biri unda mediatsiya va arbitrajning aralash qo'llanilishi hisoblanadi. Taraflar mediatsiya jarayonida kelishuv olib borgan taqdirda bu muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, ishni hakamlik sudlari topshirishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, xalqaro huquqda nizolarni hal qilishning muqobil usullarining barchasi nizolarni ko'rishda taraflarga qulayliklar berishga qaratilgan hisoblanadi. Nizo kelib chiqqan taqdirda uni kelishuv orqali hal qilish ushbu muqobil usullarning barchasini birlashtirib turuvchi mexanizm hisoblanadi.

¹¹ Rustambekov, I. (2020). GENESIS OF ALTERNATIVE DISPUTE RESOLUTION MECHANISMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.. Review of law sciences, (November Exclusive issue), 7-20. doi: 10.24412/2181-1148-2020-7-20

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Xaqberdiev Abdumurad Abdusaidovich “Mediatsiya nazariya va amaliyot” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2022
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida” gi qonuni: <https://lex.uz/docs/-3805227>
3. Paulette Khumalo. Compromise: settlement agreements. <https://www.financialinstitutionslegalsnapshot.com/2023/03/compromise-settlement-agreements/>
4. [https://www.law.cornell.edu/wex/alternative_dispute_resolution#:~:text=Alternative%20Dispute%20Resolution%20\(%22ADR%22,conciliation%2C%20mediation%2C%20and%20arbitration.](https://www.law.cornell.edu/wex/alternative_dispute_resolution#:~:text=Alternative%20Dispute%20Resolution%20(%22ADR%22,conciliation%2C%20mediation%2C%20and%20arbitration.)
5. G.M.Velyaminov. Xalqaro iqtisodiy huquq va protsess (akademik kurs): darslik. - M.: Volters Kluver, 2004-yil. 333- bet.
6. Sm. V Vserossiyskiy syezd suzey 27-28-noyabrya 2000g. Doklad Predsedatelya Vysshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskoy Federatsii V.F. Yakovleva // Vestnik Vysshego Arbitrajnogo Suda Rossiyskoy Federatsii. 2001. № 1. S. 14.
7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi; <https://www.lex.uz/docs/-111189>
8. <https://www.xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-investiciyaga-oid-nizolar>
Rustambekov, I. (2020). GENESIS OF ALTERNATIVE DISPUTE RESOLUTION MECHANISMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.. Review of law sciences, (November Exclusive issue).